

JAMIYATDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISH

Samarqand viloyati yuridik texnikumi o'quvchisi

Abduvaxobova Rayxona Sharof qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada huquqiy ong va huquqiy madaniyatni jamiyatimiz a'zolarining ongida shakllantirish va bu to'g'risida tushunchaga ega bo'lishini ta'minlashda huquqiy tarbiya muhim vosita ekanligi yoritilgan. Shuningdek, huquqiy davlatni shakllantirishda ham, huquqiy ong, madaniyat va huquqiy tarbiyaning ahamiyati ko'rsatilgan.*

Tayanch so'z va iboralar: *huquqiy tarbiya, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, demokratik davlat, huquqiy ta'lim.*

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish qator omillarga bog'liq bo'lib, bunda huquqiy tarbiya ham muhim ahamiyat kasb etadi. Huquqiy tarbiya huquqiy ong va huquqiy madaniyatning shakllanishi va o'zgarishida asosiy vositalardan biri sanaladi. Huquqiy tarbiya jamiyat a'zolarining yurish-turish madaniyatiga va ongiga huquq haqidagi bilimlarni doimiy ravishda maqsadga muvofiq ta'sir etish orqali singdirib borish jarayoni hisoblanib, o'zining muayyan vositalariga ega.

Jamiyatimiz a'zolarining huquqiy madaniyatini va huquqiy ongi darajasini yuksaltirish eng avvalida, huquqiy tarbiyaning shakllanishi va rivojlanishiga ham bog'liq.

Huquqiy tarbiya – bu jamiyat a'zolarining yurish-turish madaniyatiga va ongiga huquq haqidagi bilimlarni doimiy ravishda maqsadga muvofiq ta'sir etish orqali singdirib borish jarayonidir. Huquqiy tarbiya – bu huquqiy tajriba almashish bo'yicha davlat, jamoat tashkilotlari, alohida fuqarolarning bir maqsadga yo'naltirilgan faoliyati: huquqiy normalarga rioya qilish, ularni bajarish va bu normalardan foydalanishni ta'minlovchi muayyan ijobiy tasavvurlar, qarashlar, qadriyatlarni tushunish, yo'l-yo'riqlarni shakllantirish maqsadida shaxs ongi va xulq-atvoriga doimiy ta'sir o'tkazib borishdir.

Huquqiy tarbiya huquqiy ong va huquqiy madaniyatning shakllanishi va o'zgarishida muhim vosita hisoblanadi. Huquqiy tarbiya huquqiy bilimlarni yoyish, to'g'ri xulqning muhimligi va qimmatini, ularni qabul qilish va keyinchalik o'zlashtirib olish maqsadida shaxs va jamiyat hayotidagi qonuniylik va boshqa huquqiy holatlardan iborat.

Huquqiy tarbiyani rivojlantiruvchi qator vositalar mavjud. Sh.A.Saydullaev "Davlat va huquq nazariyasi" darsligida quyidagilarni sanab o'tadi: huquqiy targ'ibot, huquqiy ta'lim, yuridik amaliyot va o'zini o'zi tarbiyalash huquqiy tarbiya vositalari kiradi.

Huquqiy ta'sir mexanizmining tarkibiy elementi bo'lgan huquqiy tarbiyaga, shuningdek, huquqiy munosabatlarda sub'ektlarning axloqi va huquqiy ongiga ta'sir qiluvchi vosita sifatida ham qarash mumkin. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan barcha vositalarni qo'llash asosida huquq haqidagi axborotlarni etkazish, qabul qilish, o'zgartirish va undan

foydalanish hamda uni amalda ro'yobga chiqarishni ko'zda tutuvchi huquqiy xabardorlikni amalga oshirish masalalari yotadi.

Huquqiy tarbiyani rivojlantiruvchi vositalardan biri huquqiy targ'ibotdir. Huquqshunoslikda huquqiy targ'ibot huquqiy tarbiyaning bir shakli ekanligi hamda u o'zida huquqiy bilimlarni etkazish, huquq normalarining mazmunini va ularni qo'llash amaliyotini tushuntirishga qaratilgan faoliyatni ifoda etishi haqida so'z boradi.

Huquqiy ta'limni olgan shaxs uni nafaqat o'zining hayotiga, balki, jamiyat hayotiga ham tadbir eta olishi kerak. Huquqiy ta'lim bu – huquqiy bilim va tamoyillar normalarni uzatish, to'plash va o'zlashtirish, shuningdek, huquq va unga amal qilish amaliyotiga munosib munosabatni shakllantirish, o'z huquqlaridan foydalanish, taqiqlarga rioya qilish va uni bajarish qobiliyatidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son Farmoniga asosan, Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi qabul qilingan. Ushbu farmonda o'quvchi yoshlar o'rtasida huquqiy ta'lim va tarbiya berishni takomillashtirish ularning huquqiy bilimni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar, maktabgacha ta'lim tizimidagi bolalar orasida ham huquqiy ongni shakllantirish masalasiga alohida e'tibor berilgan.

Huquqiy tarbiya ijtimoiy amaliyot va real hayot hamohang bo'lganida u insonlarning ongi va qalbidan tegishli joy oladi va ularning xulq- atvoriga, dunyoqarashiga ta'sir etadi. Huquqiy tarbiya olgan inson uni hayotida ham qo'llay olishi kerak. Aynan amaliyot bo'lganda bilim mustahkamlanadi, tajriba ortadi. Huquqiy bilimlarni amalda qo'llash natijasida huquqiy madaniyat shakllanadi.

Huquqiy tarbiyaning insonlar ongidan joy olishi degani huquq to'g'risidagi o'z qarashlariga ega bo'lish, o'zining shaxsiy, ijtimoiy va siyosiy huquqlarini bilishi, undan foydalana olishi, qanday erkinliklari va burchlari borligidan xabardor bo'lishi kerakligi hamdir. Insonlarning dunyo qarashiga ta'sir etishi esa huquqbuzarliklarning oldini olishga ko'maklashadi. Jamiyatimiz a'zolarining dunyoqarashi qonuniylik asosida ya'ni qonunlarga rioya qilish ularni hurmat qilish kabi tushunchalar singdirilgan bo'lsa bu maqsadga erishish ancha oson kechadi.

Huquqiy tarbiya-shaxsga nisbatan huquqiy ongni, huquqiy ko'rsatmalarni, qonunga itoatkor xulq-atvor ko'nikmalari va odatlarini shakllantiruvchi uyushgan, bir tizimli, aniq maqsadni ko'zlagan faoliyat yig'indisi.

Huquqiy tarbiyali bo'lish uchun har bir shaxs umumhuquq bilimga, uni ongli ravishda qabul qilishga va huquqiy madaniyatni alohida bajarishga yetarli darajada huquqiy saboq olish kerak. Lekin hozirgi paytgacha huquqiy tarbiya tushunchasi, uning tushuntirish metodlari olimlarimiz tomonidan to'laligicha yoritilmagan.

Huquqiy tarbiyaning keng va tor ma'noda ko'rish mumkin. Keng ma'noda butun jamoaning, ko'pchilikning ongiga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan tarbiya, tor ma'noda esa alohida shaxsga, uning ongiga ta'sir etish yo'llari tushuniladi.

Huquqiy tarbiya natijasida keng omma yoki shaxs o'z hatti-harakatlarining qonuniy ekanligini tushunsa, huquq tartibotni buzmaslikka harakat qilsa o'zini ongli ravishda, huquq normalariga rioya etgan holda boshqara olsa, maqsadga erishilgan bo'lib hisoblanadi.

Demak, huquqiy tarbiya bu- tashkiliy ravishda muntazam olib boriladigan, aniq maqsadni ko'zlagan va shaxsga «guruh shaxslariga» ta'sir qila oladigan, ularda huquqiy ong, huquqiy bilim, qonunlarga rioya qilish xislatlarini vujudga keltiradigan harakatdir.

Ma'lumki, qonunga rioya qilish uchun, eng avvalo uni bilish kerak. Huquqiy tarbiya orqali har bir shaxsning ongiga nima qilmoq mumkin, nima qilmoq mumkin emasligini, jamiyat, davlat undan nimani talab qiladi, qonunlarga rioya etish yo'llari nimadan iborat ekanligini yetkazmoq lozim.

Huquqiy tarbiya jarayonida har bir jamoada o'rnatilgan tartibni buzish, qonun normalariga rioya etmaslik natijasida intizomiy, mamuriy, moddiy yoki jinoiy jazo kelib chiqishini tushuntirish, uqtirish zarur.

Huquqiy tarbiya tizimi uch tarkibiy qismdan tashkil topadi: davlat belgilangan qonun qoidalarini o'qitish; ularni jamiyat aozolari o'rtasida tashviqot qilish; o'quvchi yoshlarni qonun qoidalar ijrosida bevosita ishtirok etishga o'rgatish.

Huquq normalarini o'qitish deyilganda davlat organlari tomonidan tasdiqlangan dastur asosida shaxsga bilim berish tushuniladi.

Huquqiy normalarni tashviqot qilishda jamiyat a'zolari bilishi lozim bo'lgan qonun qoidalarni, qarorlar, farmonlar, farmoyishlar, buyruq va qo'llanmalarni turli vositalar yordamida aholii orasida tashviqot qilishdir. Huquqiy normalarni aholiga tushuntirish muhim qonunchilik prinsipi bo'lib hisoblanadi.

Huquqiy tarbiyaning maqsadi ma'lum vositalar, shakl va metodlar yordamida shaxsning ongiga ta'sir ko'rsatib, unda davlat belgilangan qonun qoidalariga itoatkorlikni, davlat siyosatini ijro etish hamda o'z hatti harakatini davlat talabiga muvofiq holda tanlay olish qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir. Huquqiy tarbiya shaxsning bolalik chog'idan yetuklik davrigacha o'tkaziladigan tarbiyaviy jarayonni o'z ichiga oladi.

Bu jarayon davrida shaxs oilada, maktabgacha tarbiya muassasalarida, maktabda, maktabdan tashqari muassasalarda, oliy ta'limda, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash idoralarida huquqiy tarbiya oladi.

Xulosa qilib aytganda kelajagimiz poydevori bo'lmish yoshlarimizga nafaqat huquqiy tarbiya berib, huquqiy ongni shakllantirishimiz shu bilan bir qatorda ularni real hayotda ham qo'llay olishiga ko'maklashishimiz kerak. Huquqiy tarbiya qanchalik mukammal bo'lsa, huquqiy madaniyat eng yuqori darajada shakllangan bo'lsa jamiyatga, shaxslarga va davlatga ziyon beruvchi huquqbuzarliklar soni shuncha kamayadi. Huquqiy savodxon bo'lgan kishi huquqni, qonunni, konstitusiyani o'z hayot tarzining bir qismiga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.A.Sadullayev. Davlat va huquq nazariyasi . – T.: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2022.
2. X.T. Odilqoriyev (tahriri ostida) – Davlat va huquq nazariyasi . – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
3. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari – Ma’ruza matni. Guliston, 2021.
4. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari. Ma’ruzalar matni. Namangan, 2022.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF–5618 sonli farmoni